
"O'zbek tilim - iftixorim" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi

Farg'ona shahridagi umumta'lim maktablarida faoliyat olib borayotgan ona tili va adabiyoti hamda musiqa fani o'qituvchilari ishtirokida o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kunning 33 yilligi munosabati bilan «O'zbek tilim- iftixorim» mavzusida ma'naviy- ma'rifiy tadbir tashkil etildi.

Unda maktablarda faoliyat yuritayotgan ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari tomonidan ona tilimizni madh etuvchi she'rlar ijro etildi. Millatimiz tarixiga, uning rivojiga o'zining salmoqli hissalarini qo'shgan buyuk siymolarimizning chiqishlari, musiqa fani o'qituvchilari ijrosidagi qo'shiqlar bayramga o'zgacha ruh, yaxshi kayfiyat bag'ishladi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-10-21 22:26:52